

ENVIRONMENTAL PROTECTION — AN IMPORTANT FACTOR FOR PUBLIC HEALTH

Author: Madina Yusupova Ikromjon qizi

Institution: Kokand University, Andijan Branch, Faculty of Medicine, Pediatrics
Program, 3rd-year student

Abstract. This article examines environmental pollution and its impact on human health, as well as the role of environmental protection measures in strengthening public health. The medical significance of maintaining the hygienic quality of air, water, and soil is analyzed based on scientific sources and statistical data

Keywords: environment, ecology, healthcare, air pollution, drinking water, prevention.

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI — JAMOAT SALOMATLIGI UCHUN MUHIM OMI

Muallif: Madina Yusupova

Tashkilot: Qo‘qon universiteti, Andijon filiali, Tibbiyot fakulteti, pediatriya yo‘nalishi
3-kurs talabasi abduhuktor709@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitning ifloslanishi va uning inson salomatligiga ta‘siri, shuningdek, ekologik muhofaza choralari orqali jamoat salomatligini mustahkamlash masalalari yoritiladi. Havoning, suvning va tuproqning gigiyenik sifatini saqlashning tibbiyotdagi ahamiyati ilmiy manbalar va statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: atrof-muhit, ekologiya, sog‘liqni saqlash, havoning ifloslanishi, ichimlik suvi, profilaktika.

Kirish

Zamonaviy tibbiyotning asosiy maqsadlaridan biri — aholining sogʻlom yashashini taʼminlashdir. Biroq sogʻliqni saqlash faqat davolash va profilaktika tadbirlari bilan chegaralanmaydi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlariga koʻra, dunyodagi kasalliklarning 23–25% bevosita atrof-muhit omillariga bogʻliq.[1,4] Shu bois ekologik muhofaza masalasi tibbiy profilaktikaning ajralmas qismi sifatida qaraladi

Asosiy qism

1. Havoning ifloslanishi va sogʻliq

Atmosfera havosining sifati nafaqat nafas olish tizimi, balki yurak-qon tomir, asab va immun tizimlariga ham taʼsir koʻrsatadi.[2,5,] Tadqiqotlarga koʻra: PM2.5 va PM10 turdagi chang zarrachalari oʻpka toʻqimalarida yalligʻlanish jarayonlarini kuchaytiradi hamda surunkali nafas yoʻllari kasalliklarga olib keladi [2,5].

Havodagi azot oksidi va oltingugurt birikmalari bronxit, astma va yurak ishemik kasalligini rivojlanish xavfini oshiradi [2].

2. Ichimlik suvi gigiyenasi

Toza ichimlik suvi yetishmasligi rivojlanayotgan mamlakatlarda diareya, gepatit A va parazitlar infeksiyalar tarqalishining asosiy omilidir [3,4]. Suv resurslarini ifloslanishdan himoya qilish — yuqumli kasalliklarning oldini olishning eng samarali yoʻllaridan biridir [3].

3. Tuproq ifloslanishi va oziq-ovqat xavfsizligi

Pestitsidlar, ogʻir metallar va sanoat chiqindilari orqali ifloslangan tuproq mahsulotlar tarkibiga zaharli moddalarning kirib kelishiga sabab boʻladi. Bu esa uzoq muddatda

organizmida toksik moddalarni to'planishiga va onkologik kasalliklar xavfini oshiradi.[6]

Ekologik muhofaza choralarining tibbiy ahamiyati

Yashil hududlarni kengaytirish — havodagi chang va karbonat angidrid miqdorini kamaytiradi, aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1]

Chiqindilarni saralash va qayta ishlash — tuproq va suv ifloslanishini oldini oladi.

Avtomobil gaz chiqindilarini cheklash — yurak-qon tomir va nafas olish kasalliklari sonini qisqartiradi [2,5].

Xulosa

Atrof-muhitni muhofaza qilish — bu faqat ekologiya sohasi vakillarining vazifasi emas, balki sog'liqni saqlash tizimining ham ustuvor yo'nalishidir. Toza havo, sof ichimlik suvi va sog'lom ekologik muhit aholining umumiy salomatlik darajasini oshiradi, tibbiy xarajatlarni kamaytiradi va umr davomiyligini uzaytiradi [1,4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Preventing disease through healthy environments. — Geneva: WHO Press, 2016.

2.Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Air pollution and child health: prescribing clean air. — Geneva, 2018.

3.World Health Organization. Guidelines for drinking-water quality. 4th edition. — WHO, Geneva, 2017.



4.Prüss-Ustün A., Wolf J., Corvalán C., et al. Preventing disease through healthy environments: A global assessment of the burden of disease from environmental risks. — WHO, 2016.

5.Smith K.R., Bruce N., Balakrishnan K., et al. Millions Dead: How Do We Know and What Does It Mean? Methods Used in the Comparative Risk Assessment of Household Air Pollution. — Annual Review of Public Health, 2014.

6.Gofman J.W. Radiation and Human Health. — Sierra Club Books, San Francisco, 1981.

